YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 14-aprel, №14 (8032)

XALQIMIZNING AZM-U SHIJOATI VA QUDRATI, BUKILMAS IRODASI VA QAT’IYATI, MUSTAQIL TARAQQIYOTGA BO‘LGAN MUSTAHKAM ISHONCHI BUYUK MAQSADLARIMIZGA ERISHISHNING KAFOLATIDIR.

Shavkat MIRZIYOYEV

TOSHKENT VILOYATIDA ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI VA USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI



Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-aprel kuni Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyati poytaxtga yaqin joylashgani uchun bu yerda yashovchi aholi ish o‘rinlari, daromad va turmush sharoiti ham Toshkent shahri darajasiga munosib bo‘lishini kutishini ta’kidladi. Shu bois, viloyat tadbirkorlik va biznes muhitini yaxshilash, sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida namuna bo‘lishi lozimligi ko‘rsatib o‘tildi.

So‘nggi yillarda hududda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2024-2025-yillarda viloyat uchun 23 ta qaror qabul qilinib, ular doirasida budjet, bank kreditlari va xorijiy investitsiyalar hisobidan yirik resurslar yo‘naltirildi. Shu davrda 14 ta yangi sanoat zonasi tashkil etildi, 115 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi, 237 ta yangi eksportchi paydo bo‘ldi va 300 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi.

O‘tgan bir yil ichida Parkent, Ohangaron va Olmaliqda elektrotexnika, metallurgiya, farmatsevtika, to‘qimachilik, mashinasozlik va tog‘-kon sohalaridagi yirik loyihalar ishga tushirildi. Poytaxt ekologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan 87 ta korxona va yangi sanoat loyihalarini Toshkent viloyatiga ko‘chirish ishlari boshlandi, hozirgacha 15 dan ortiq to‘qimachilik korxonasi ko‘chib keldi va 4700 nafar fuqaro o‘z yashash joyida ishli bo‘ldi.

Umuman, 2025-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 7,1 foizga, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6,6 foizga, qishloq xo‘jaligi 4,2 foizga, xizmat ko‘rsatish sohasi 15,2 foizga, qurilish-pudrat ishlari hajmi 9,8 foizga o‘sdi.

2026-yilda viloyat iqtisodiyotini 9,1 foizga, sanoatni 8,8 foizga, xizmatlarni 17,2 foizga, qurilish ishlarini 15 foizga va qishloq xo‘jaligini 6,6 foizga oshirish rejalashtirilgan. Buning uchun 6,2 milliard dollar investitsiya jalb etish va 2,8 milliard dollar eksportni ta’minlash mo‘ljallangan.

Bundan buyon tumanlar salohiyatini sun’iy intellekt yordamida tahlildan o‘tkazib, sanoat, investitsiya va eksport bo‘yicha yangi imkoniyatlarni aniqlash zarurligi qayd etildi. Bu ishlar samarasini yanada oshirish uchun viloyatda “Raqamli taraqqiyot – sun’iy intellekt markazi”ni ochish taklifi qo‘llab-quvvatlandi.

Viloyatda sanoatni boshqarish bo‘yicha yangi tizim joriy etilayotgani, hokimning sanoat masalalari bo‘yicha o‘rinbosariga investitsiya va eksportni ko‘paytirish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilanishi aytildi.

Joriy yilda 883 ta mahallani kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, 84,7 ming aholini doimiy ishga joylashtirish, 37 ming norasmiy ish o‘rnini legallashtirish va 13,3 ming ishsiz fuqaroni kasbga o‘qitish vazifasi qo‘yildi.

Sanoatdagi qo‘shimcha o‘sish manbalari sifatida qator yangi loyihalar ko‘rsatib o‘tildi. Jumladan, Angren shahrida keramik va keramogranit plitka ishlab chiqarish, Yangiyo‘l tumanida “Tinchlik” kichik sanoat zonasi, Parkent tumanida “Parkent Pharm” erkin iqtisodiy zonasi, O‘rta Chirchiq tumanida mebelchilikka ixtisoslashgan klaster, qo‘ziqorin yetishtirish va shirin makkajo‘xori ishlab chiqarish, Yangiyo‘lda turkiyalik sarmoyador ishtirokida baliqchilik majmuasi, Nurafshon shahrida to‘qimachilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Yig‘ilishda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tildi.

Qayd etilganidek, chorva va parranda go‘shti yetishtirish hajmi hanuz poytaxt va viloyat ehtiyojlari uchun yetarli emas. Shu bois, Ohangaron tumanida chorvachilikni rivojlantirish va ozuqa bazasini kengaytirish bo‘yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Bu yerda Qo‘ychilik va echkichilik ilmiy-ishlab chiqarish markazini tashkil etib, 50 ming bosh naslli qo‘y va echki olib kelish rejalashtirilgan. Ohangaron o‘rmon xo‘jaligi balansidagi o‘rmon bilan qoplanmagan 60 ming gektar yaylovni auksion orqali ajratish mexanizmi joriy etiladi.

Umuman, 2026-yilda 2,1 trillion so‘mlik 78 ta chorvachilik loyihasi amalga oshirilib, 496 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Shuningdek, 35 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy etish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, bog‘ va uzumzorlar barpo qilish rejalashtirilgan.

Parrandachilikni rivojlantirish bo‘yicha Oqqo‘rg‘on va Ohangaron tumanlarida yiliga 30 ming tonna parranda go‘shti yetishtirish quvvatiga ega, qiymati 45 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Qayd etilganidek, piyoz va sarimsoqdan gektariga olinayotgan daromad g‘alladan bir necha o‘n barobar yuqori. Shuning uchun Ohangaronda g‘alla maydonlarini yuqori daromadli ekinlarga bosqichma-bosqich o‘tkazish taklifi ma’qullandi.

Qisqa vaqt ichida Bo‘stonliqdagi “Amirsoy” qishki kurort majmuasi va “Beldersoy resort” maskani xalqaro darajadagi turizm markazlariga aylangani qayd etildi. Endilikda shunday loyihalarni Parkent, G‘azalkent, Ohangaron va Angrenning tog‘li hududlarida ham amalga oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Masalan, Parkentda “Oltin bel” cho‘qqisi va unga tutash hududda mehmonxona, “shale” uslubidagi uylar, dam olish va ko‘ngilochar majmualarni o‘z ichiga olgan tog‘-chang‘i kurort zonasi, Ohangaron tumanida esa “Moviy tog‘lar” dam olish oromgohi negizida zamonaviy turizm majmuasi tashkil etiladi.

Shuningdek, Angren shahrining Lashkarak va Yangiobod hududlarida “turizm qishloqlari”, Bekobod tumanida ekologik va ov turizmi, Parkent tumanida “Kumushkon” turizm majmuasi hamda Parkentsoyda oilaviy dam olish maskanlari va mehmon uylarini tashkil etish rejalashtirilgan. Joylashtirish vositalari quvvatini 35,5 ming o‘ringa yetkazish ko‘zda tutilgan.

Mazkur ishlar hisobidan viloyatda turizm eksportini 600 million dollarga, xorijiy va mahalliy sayyohlar sonini 16,5 millionga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda viloyatning “og‘ir” toifadagi va “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi” tuman, shahar va mahallalaridagi 231 ta loyihaga 956 milliard so‘m ajratilgani qayd etildi. Aholi mahallalarida uy-joy, elektr, suv, kanalizatsiya va yo‘llarni yaxshilash ishlarini jadallashtirish vazifasi qo‘yildi.

Xususan, ichimlik suvi bormagan 39 ta mahalla markazlashgan ichimlik suvi bilan to‘liq ta’minlanadi, yana 81 ta mahalladagi 166,7 kilometr yaroqsiz suv tarmog‘i rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, 145 ta mahalladagi 121 ta eskirgan transformator yangilanib, 443,6 kilometr elektr tarmoqlari almashtiriladi.

Yig‘ilishda yirik ijtimoiy va innovatsion loyihalar ham ko‘rib chiqildi. Jumladan, Yuqori Chirchiq tumanida 400 gektar maydonda qiymati 5 milliard dollar bo‘lgan “Tashkent Medical Smart City” xalqaro innovatsion tibbiyot shaharchasini barpo etish rejasi muhokama qilindi. Shu bilan birga, Nurafshon shahrida 35,4 million dollarlik Kelajak texnologiyalari markazini tashkil etish, 100 dan ortiq xorijiy AT kompaniyani jalb qilish va xizmatlar eksportini yiliga 20 million dollarga yetkazish, 670 o‘rinli ko‘p tarmoqli tibbiyot klasteri, ijtimoiy muassasalar markazi, viloyat davlat arxivi binosi kabi loyihalar ko‘rib chiqildi.

Bundan tashqari, aholi murojaatlari bilan ishlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, “yashil iqtisodiyot” va yoshlarga oid siyosat borasida olib borilayotgan ishlar hamda kelgusi rejalar ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilish yakunida Prezidentimiz mutasaddilarga viloyat islohotlar shtabi bilan birgalikda mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanib, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan har bir dastur va loyihaning aniq natija berishini ta’minlash yuzasidan topshiriqlar berdi. Toshkent viloyatini kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirib, boshqa hududlar uchun namuna ko‘rsatish mas’ullar faoliyatining eng ustuvor vazifasi bo‘lishi belgilandi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

RAHBAR VA YOSHLAR UCHRASHUVI

AMALIY YECHIMLAR MUHOKAMASIGA QARATILGAN MULOQOT

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti hamda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev boshchiligida bitiruvchi talabalar bandligini ta’minlashga bag‘ishlangan “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi.



Unda barcha tuman va shahar hokimlari, viloyat boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, bank-moliya muassasalari mas’ullari hamda universitet rahbariyati ishtirok etdi.

Ochiq va samimiy muloqot ruhida kechgan uchrashuvda viloyat hokimi bitiruvchi yoshlarni samimiy tabriklab, ularning kelgusi faoliyatida ulkan zafarlar tiladi.

Shu bilan birga, yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularning bilim va salohiyatidan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini alohida ta’kidladi.

Ayni vaqtda Milliy universitetda Toshkent viloyatidan 1 289 nafar bitiruvchi tahsil olmoqda. Shundan 1 200 nafari bakalavriat, 89 nafari magistratura bosqichida.

Toshkent davlat texnika universitetida esa, 1 195 nafar bitiruvchi viloyatimiz talabalari sanaladi. Shundan, 1 071 nafari bakalavr, 124 nafari magistratura mutaxassisligida ta’lim olmoqda.

Uchrashuv davomida talabalar bandlik, tadbirkorlikni rivojlantirish, imtiyozli kreditlar, yangi ish o‘rinlari yaratish kabi masalalar yuzasidan o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qildilar.

Mas’ullar tomonidan har bir murojaatga aniq va amaliy javoblar berildi. Ayrim bitiruvchilar esa shu joyning o‘zida tegishli rahbarlarga biriktirilib, ularni ishga joylashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Eslatib o‘tamiz, joriy yil 5-mart kuni ham Milliy universitetda “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi hamda davlat muassasalari va yirik korxonalar ishtirokida “Mehnat yarmarka”lari tashkil etilgan edi.

Buning natijasida 149 nafar bitiruvchining rasmiy bandligi ta’minlangan. Shuningdek, bugungi kunga qadar tuman va shahar hokimlari tomonidan talabalar bilan individual suhbatlar o‘tkazilib, 118 nafar bitiruvchining oliy ta’lim muassasasini tamomlashi bilan ishga joylashishi kafolatlangan.

Uchrashuv yakunida o‘z soha mutaxassisligi bo‘yicha viloyat tashkilot rahbarlari, tuman va shahar hokimlari tomonidan ishga qabul qilish yuzasidan kafolatlangan sertifikatlar o‘z egalariga topshirildi.

Shuningdek, Toshkent viloyati hokimligi hamda Milliy universitet o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan Memorandum imzolandi.

Mazkur uchrashuvlar nafaqat muloqot, balki aniq natijalarga yo‘naltirilgan amaliy qadamlar maydoniga aylandi.

Akrom MAMADALIYEV

INSON MANFAATLARI



AHOLI MUROJAATLARI – E’TIBOR MARKAZIDA!

Bekobod tumanida aholi murojaatlarini o‘rganish va mavjud muammolarga tezkor yechim topish maqsadida navbatdagi sayyor qabul tashkil etildi. Unda tuman hokimi, tuman prokurori, tuman Adliya bo‘limi rahbari hamda tegishli tashkilotlar mas’ullari ishtirok etdi.

Sayyor qabul Pastki Kerayit mahallasida o‘tkazilib, unda fuqarolarni uzoq vaqtdan buyon qiynab kelayotgan dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi. Har bir murojaatga alohida e’tibor qaratilib, ularning kelib chiqish sabablari chuqur tahlil qilindi. Ayrim muammolar joyida hal etilib, fuqarolarning roziligiga erishildi.

Shuningdek, qo‘shimcha o‘rganishni talab etadigan masalalar yuzasidan mutasaddi tashkilot rahbarlariga aniq topshiriqlar berildi. Ularning ijrosi qat’iy nazoratga olinib, belgilangan muddatlarda hal etilishi yuzasidan mas’uliyat yuklatildi.

Mazkur uchrashuvlar aholi bilan ochiq muloqotni kuchaytirish, fuqarolarning dard-u tashvishlariga befarq bo‘lmaslik, ularni o‘z vaqtida bartaraf etish borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat organlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aholi murojaatlarini o‘z vaqtida aniqlash va hal etish — eng ustuvor vazifalardan biridir.

Gavhar BEKMURODOVA

JARAYON

BEKOBOD DALALARIDA INNOVATSION TAJRIBA

Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan ishchi tashrif doirasida Bekobod tumanidagi “Sultonov Muhiddin” fermer xo‘jaligiga qarashli dala maydonlari ko‘zdan kechirildi. Tashrif davomida qishloq xo‘jaligida ilg‘or yondashuvlarni joriy etish, hosildorlikni oshirish hamda ilmiy asoslangan tajriba-sinov ishlarini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur xo‘jalikning umumiy 10 gektar maydonida paxtaning serhosil navi qo‘shqator usulida, maxsus plyonka ostiga ekilgani kuzatildi. Sug‘orish va oziqlantirish jarayonlari esa tomchilatib sug‘orishga ixtisoslashgan zamonaviy texnologiyalar asosida yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa suv resurslaridan oqilona foydalanish bilan birga, hosildorlikni sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda.

E’tiborlisi, dala maydonining bir qismida qizil rangli, boshqa qismida esa an’anaviy oq rangli qoplama plyonkalardan foydalanilmoqda. Ushbu yondashuv turli agrotexnik usullar samaradorligini amaliy jihatdan solishtirish, eng maqbul variantni aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa fermer xo‘jaligida ilmiy yondashuv asosida ish olib borilayotganining yaqqol ifodasidir.

Tashrif davomida xo‘jalikka tegishli 2 gektar maydondagi uzumzor hamda 10 gektarlik g‘alla dalasida olib borilayotgan agrotexnik tadbirlar bilan ham yaqindan tanishildi. G‘alla parvarishida belgilangan tavsiyalarga qat’iy amal qilinayotgani, uzumzorlarni rivojlantirishda esa zamonaviy usullar qo‘llanilayotgani e’tirof etildi.



Umuman olganda, xo‘jalikda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ilmiy izlanishlar va tajriba-sinov ishlarini tizimli tashkil etish orqali yuqori natijalarga erishish yo‘lida izchil ishlar olib borilmoqda.

Daladagi jarayonlarni baholashda texnik imkoniyatlarni yanada kengaytirish, ekish va sug‘orish ishlarini samarali tashkil etish, shuningdek rangli plyonkalardan foydalanishda ilmiy asosga tayanish zarurligi ta’kidlandi. Shu asosda mas’ullarga aniq tavsiya va topshiriqlar berilib, ularning ijrosi qat’iy nazoratga olindi.

Gulnoza ATAMURODOVA

BARQAROR DAROMAD MANBAI

PILLACHILIK VA TOMORQA UYG‘UNLIGI

Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan ishchi tashrif doirasida Bekobod tumanidagi “Mallaboy” MFYda pillachilik bilan shug‘ullanayotgan xonadonlar faoliyati bilan yaqindan tanishildi. Mazkur mahalla bugungi kunda aholi bandligini ta’minlash, xonadonlarda qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish borasida ilg‘or tajribaga ega hududlardan biriga aylanib borayotgani alohida e’tirof etildi.

Ma’lum qilinishicha, mahalla bo‘yicha hozirda 200 quti pilla parvarish qilinmoqda. Jarayon izchil tashkil etilgan bo‘lib, yaqin istiqbolda bu ko‘rsatkichni 1000 qutigacha yetkazish rejalashtirilgan. Bu esa pillachilikni tizimli yo‘lga qo‘yish, aholi daromadlarini oshirish va bandlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. E’tiborlisi, parvarishning muayyan bosqichidan so‘ng pillalar 5 ta markazlashgan pillaxonaga ko‘chiriladi, bu esa jarayonni samarali tashkil etishga imkon bermoqda.

Tashrif davomida 60 quti pilla parvarish qilinayotgan xonadon faoliyati bilan ham yaqindan tanishildi. Xonadon egalari bilan ipak qurti parvarishi jarayoni, yaratilgan sharoitlar hamda kutilayotgan natijalar yuzasidan fikr almashildi. Ushbu jarayonda mehnat, tajriba va mas’uliyat uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘layotgani qayd etildi.

Shu bilan birga, xonadonda tomorqa yerlaridan samarali foydalanish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Atigi 2 sotix maydonda baqlajon ekinlari tomchilatib sug‘orish texnologiyasi asosida yetishtirilayotgani kuzatildi. Bu esa kichik yer maydonlaridan ham unumli foydalanish orqali oilaviy daromadni oshirish mumkinligini amalda tasdiqlamoqda.

Umuman olganda, mazkur mahallada pillachilik va tomorqachilikni uyg‘un holda rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash, daromad manbalarini ko‘paytirish va farovonlikni yuksaltirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Tashrif yakunida ushbu yo‘nalishda mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish, ilg‘or tajribalarni kengaytirish hamda jarayonlarni yanada takomillashtirish yuzasidan mas’ullarga tegishli tavsiya va topshiriqlar berildi.

Madina MIRZAAHMEDOVA





BOLALAR DUNYOSI

“BIZ YOSH YULDUZLARMIZ”

Bahor — yangilanish, yasharish va ezgu orzular fasli. Tabiat uyg‘onib, atrof-muhit go‘zallikka burkangan bu pallada inson qalbida ham iliqlik, mehr va ijodiylik kuchayadi. Ayniqsa, Navro‘z ayyomi arafasida o‘tkaziladigan tadbirlar bolajonlar qalbida quvonch va hayajon uyg‘otadi.



Ana shunday fayzli kunlarda Bekobod tumani 19-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida tayyorlov guruh tarbiyachisi Ruxsora Egamberdiyeva va yordamchi tarbiyachi Klara Qurbonaliyeva hamda ota-onalar hamkorligida “Biz yosh yulduzlarmiz” mavzusida bellashuv tashkil etildi. Navro‘z bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ushbu tadbirda 21 nafar qizaloq 5 ta shart asosida o‘z iste’dodi, chaqqonligi va bilimini namoyon etdi.

Bellashuv davomida ishtirokchilar sahna madaniyati, ijodkorlik, topqirlik va jamoaviylik borasida o‘z mahoratlarini ko‘rsatdilar. Qizg‘in va murosasiz o‘tgan bahslarning yakuniy natijalariga ko‘ra, 1-o‘rin Karimberdiyeva Solihaga, 2-o‘rin Ashirqulova Dilnuraga, 3-o‘rin Abdumajidova Zeboxonga nasib etdi.

Tadbir so‘ngida tashkilot rahbari Ra’no Usubaliyeva: “Bunday tadbirlar bolalarning iqtidorini yuzaga chiqarish va ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi, farzandlarimizning baxtli kulgusi — biz uchun eng katta yutuqdir”, — deya ta’kidladi.

Bu kabi bellashuvlar nafaqat bolalar uchun bayramona kayfiyat ulashadi, balki ularning kelajak sari ishonch bilan qadam tashlashiga zamin yaratadi. Tarbiyachi sifatida shuni alohida ta’kidlashni istardimki, men o‘z kasbimdan faxrlanaman va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash yo‘lida sidqidildan xizmat qilishdan mamnunman.

Ruxsora EGAMBERDIYEVA,
Bekobod tumani 19-DMTT
tayyorlov guruh tarbiyachisi

MAKTAB HAYOTIDAN



YOSHLAR MAYDONDAGI BELLASHUVDA

Bekobod tumani 39-umumta’lim maktabida yoshlar o‘rtasida sportni rivojlantirish, ularni sog‘lom turmush tarziga jalb etish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida futbol musobaqasi tashkil etildi.

Mazkur sport tadbiri maktabning chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik (CHQBT) fani o‘qituvchisi Komilov Murodjon tashabbusi bilan o‘tkazildi. Musobaqada 6-, 7- va 8-sinf o‘quvchilari faol ishtirok etib, o‘zlarining jismoniy tayyorgarligi, chaqqonligi va jamoaviy hamjihatligini namoyon etdilar.

Bellashuvlar davomida har bir jamoa g‘alaba uchun kurash olib bordi. Maydonda nafaqat sport mahorati, balki intizom, o‘zaro hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ulari ham yaqqol ko‘zga tashlandi. Musobaqa o‘quvchilar o‘rtasida do‘stlik rishtalarini mustahkamlab, sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, yosh futbolchilarning qat’iyati va g‘alabaga bo‘lgan intilishi tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Tadbir yakunida g‘olib jamoalar munosib taqdirlandi. 8-“B” sinf o‘quvchilari faxrli birinchi o‘rinni egalladi. 7-sinf jamoasi ikkinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi, 6-“A” sinf o‘quvchilari esa uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. G‘oliblarga faxriy yorliqlar hamda esdalik sovg‘alari topshirildi.

Bunday sport musobaqalari yoshlarni nafaqat jismonan chiniqtirish, balki ma’nan barkamol etib tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu tadbir o‘quvchilarda vatanparvarlik, jamoaviylik va mas’uliyat tuyg‘ularini yanada mustahkamlaydi.

Murodjon KOMILOV,
Bekobod tumani 39-umumta’lim maktabi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisi, Vatan tayanchi otryadi rahbari

TA’LIM VA TARAQQIYOT

BILIM SARI MUSTAHKAM POYDEVOR



So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yoshlarning sifatli bilim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Bu esa o‘z navbatida nodavlat ta’lim maskanlarining ham rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Bekobod tumanidagi “Buxoro Qorako‘l” o‘quv markazi o‘z faoliyatini boshlaganiga uch yildan oshdi. Dastlab yuz nafar o‘quvchi bilan ish boshlagan markazda bugungi kunda ta’lim olayotganlar soni tobora ortib bormoqda. Darslar malakali ustozlar tomonidan zamonaviy va qiziqarli usullarda olib borilmoqda. O‘quvchilarga tarix, geografiya, huquq, matematika, fizika, biologiya, kimyo, arab tili va ona tili fanlari bo‘yicha chuqur bilim beriladi.

Markazning e’tiborga molik jihatlaridan biri — bu yerda faoliyat yuritayotgan ustozlarning yuqori natijalarga erishayotgani hisoblanadi. Xususan, tarix, geografiya va huquq fanlaridan dars berayotgan Mehriddin Umarovning o‘quvchilari doimiy ravishda yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda. Ayniqsa, tarix fanidan erishilgan yutuqlar alohida tahsinga loyiq.

Ustozning samimiyligi, bilimlarni chuqur va tizimli tarzda yetkazish uslubi hamda o‘rni kelganda qat’iy talabchanligi o‘quvchilarning ilmga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida uning shogirdi Xolmirzayeva Umidabonuni keltirish mumkin. U tarix fanidan yuqori natijaga erishib, boshqa fanlardan ham sertifikatlarni qo‘lga kiritib, muddatidan avval talabalik baxtiga muyassar bo‘ldi.

Albatta, bu yutuqlar ortida ustoz va shogirdning mashaqqatli mehnati mujassam. Zero, o‘quvchi muvaffaqiyati o‘qituvchi uchun eng katta mukofotdir.

Xulosa qilib aytganda, “Buxoro Qorako‘l” o‘quv markazi bilimga chanqoq yoshlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jasmina ISMOILJONOVA,
Bekobod tumani 2-umumta’lim maktabining
11-“A” sinf o‘quvchisi

HISOBOT KONSERTI

RAQS VA IJOD BAYRAMI

Bekobod tumani 16-son bolalar musiqa va san’at maktabida Xoreografiya bo‘limining yillik hisobot konserti yuqori saviyada tashkil etildi.

Mazkur tadbir o‘quvchilarning bir yil davomida egallagan bilim va mahoratini namoyish etish, ularning sahna madaniyati hamda ijodiy qobiliyatlarini keng jamoatchilikka taqdim etish maqsadida o‘tkazildi.

Konsert davomida turli yosh toifasidagi o‘quvchilar milliy va zamonaviy raqslar bilan sahnaga chiqib, o‘z iste’dodlarini namoyon etdilar. Har bir chiqish tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinib, uzoq davom etgan olqishlarga sazovor bo‘ldi. Ayniqsa, milliy raqslar asosidagi sahna ko‘rinishlari barchada katta taassurot qoldirdi.

Tadbir puxta tayyorgarlik asosida tashkil etilgani bilan ajralib turdi. Sahna bezagi, musiqa tanlovi va raqs kompozitsiyalarining uyg‘unligi konsertga alohida joziba bag‘ishladi. Bu esa ustozlarning fidokorona mehnati hamda o‘quvchilarning tinimsiz izlanishlari samarasidir.

Tadbir yakunida bo‘lim o‘qituvchilariga minnatdorlik bildirildi, faol va iqtidorli o‘quvchilar esa munosib rag‘batlantirildi. Ushbu hisobot konserti nafaqat ta’lim natijalarining ifodasi, balki haqiqiy san’at bayrami sifatida barchaga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi.

Shuningdek, tadbir doirasida maktabning Tasviriy san’at bo‘limi tomonidan o‘quvchilarning ijodiy ishlari namoyish etilgan ko‘rgazma ham tashkil etildi. Unda rangtasvir, grafika hamda amaliy san’at yo‘nalishidagi turli asarlar keng jamoatchilik e’tiboriga havola etilib, tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Shahnoza KAMOLOVA,
Bekobod tumani 16-son
bolalar musiqa va san’at maktabi
direktori



YOSHLAR YUTUG‘I

ISHONCHGA TAYANGAN MUVAFFAQIYAT

Bugungi kunda yoshlarning ilm-fan va ta’lim sohasidagi yutuqlari jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xalqaro miqyosda erishilayotgan natijalar yurtimiz yoshlarining salohiyati va intilishlarini yana bir bor namoyon etmoqda.

Ana shunday iqtidorli yoshlardan biri — Bekobod tumani “Qolg‘onsir” MFYda istiqomat qiluvchi, Olmaliq 1-son texnikumi Kompyuter grafikasi va dizayn operatori yo‘nalishi 2-bosqich o‘quvchisi Fayzimuratova Shabnamdir. U “Jadidlar” xalqaro ilmiy tadqiqotlar assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan “Yil talabasi – 2026” xalqaro ilmiy tanlovida munosib ishtirok etdi.

Shabnam mazkur tanlovda o‘zining “Muvaffaqiyatlarimning ortidagi eng katta kuch bu dadajonimning menga bo‘lgan ishonchi” nomli ilmiy maqolasi bilan qatnashib, yuqori ilmiy salohiyati va izlanishlari natijasida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ushbu muvaffaqiyat nafaqat uning shaxsiy mehnati, balki oilaviy qo‘llab-quvvatlash, xususan, ota ishonchining beqiyos o‘rni borligini ko‘rsatadi.



Shuningdek, ishtirokchining ilmiy maqolasi “Modern Education and Development” xalqaro ilmiy jurnalida chop etilgani uning yutug‘ini yanada mustahkamladi. Mazkur jurnal (ISSN: 3060-4567) Google Scholar hamda ResearchBib-OAK-14 bazalarida indekslangan bo‘lib, ilmiy ishning keng jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qiladi.

Bu kabi yutuqlar yoshlarning ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni yangi marralar sari ruhlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shubhasiz, bunday natijalar ortida izchil mehnat, qat’iyat hamda yaqinlarning ishonchi mujassam.

Qahramonimizni ushbu yuksak yutug‘i bilan samimiy muborakbod etamiz hamda kelgusidagi ilmiy faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz.

Sarvinoz SHERALIYEVA

EL ARDOG‘IDAGI INSON



IBRATLI HAYOT YO‘LI

O‘zbekistonda yuridik soha rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olim va davlat arboblari orasida Alisher Azizxo‘jayev alohida o‘rin egallaydi. U 1954-yil 1-iyulda Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida tavallud topgan bo‘lib, yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi bilan ajralib turgan.

U Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetini tamomlab, o‘z faoliyatini aynan shu oliygohda boshladi. 1979–1991-yillar davomida turli mas’ul lavozimlarda ishlagan holda, nafaqat ilmiy, balki tashkiliy jihatdan ham katta tajriba orttirdi. Keyinchalik u davlat boshqaruvi tizimiga jalb etilib, Prezident maslahatchisi, Bosh vazir o‘rinbosari kabi yuqori lavozimlarda faoliyat yuritdi. 2004–2007-yillarda esa Madaniyat vaziri sifatida mamlakat madaniy siyosatini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shdi.

Shu bilan birga, Alisher Abbosovich yuridik ta’lim rivojiga ham katta e’tibor qaratdi. U Toshkent davlat yuridik universitetida “Konstitutsiyaviy huquq” kafedrasi mudiri sifatida faoliyat yuritib, talabalarga nafaqat bilim, balki hayotiy tajriba ham ulashdi. Uning rahbarlik faoliyati davomida oliygohning nufuzi oshib, mintaqada yetakchi ta’lim maskanlaridan biriga aylandi.

Olimning ilmiy merosi nihoyatda boy bo‘lib, u 100 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, “Davlatchilik va ma’naviyat”, “Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar”, “Mafkura poligonlaridagi olishuv” kabi asarlar muallifidir. U ilmiy rahbar sifatida ham samarali faoliyat yuritib, ko‘plab fan nomzodlari va doktorlarni tayyorlashga hissa qo‘shdi.

Atoqli olim va davlat arbobi 2012-yil 9-yanvarda Toshkent shahrida vafot etdi. Bugungi kunda uning boy ilmiy merosi, davlat boshqaruvidagi tajribasi hamda ibratli hayot yo‘li yoshlar uchun muhim namuna bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jo‘rabek URUNBOYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti
1-bosqich talabasi

IQTISOD VA HUQUQ

YANGI HISOB-KITOB TARTIBI

Dunyo global iqtisodiyotining bir qismi bo‘lgan O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni erkinlashtirish va biznesni legallashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar talaygina. Xususan, iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2021-yil 10-sentyabrdagi “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 24-martdagi “Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda muhim vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi PF-246-sonli “Naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga ko‘ra, 2030-yilga qadar ikki asosiy maqsad belgilangan: birinchidan, yalpi ichki mahsulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravarga qisqartirish, ikkinchidan esa savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida aholining naqd pulsiz to‘lovlari ulushini 75 foizga yetkazish.

Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-apreldan boshlab ko‘chmas mulk obyektlari, ishlab chiqarilganiga o‘n yildan oshmagan M, N, O va G toifaga kiruvchi transport vositalari, shuningdek maxsus avtotransport vositalari uchun to‘lovlar faqat bank kartalari yoki elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 16-mart kuni ko‘chmas mulk va transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun notariuslar va banklar o‘rtasida elektron ma’lumotlar almashish tartibi belgilandi.

Yangi mexanizmga ko‘ra, tomonlar notarial idoraga yoki bankka murojaat qiladi. Sotib oluvchi mablag‘ni milliy valyutada maxsus depozit — eskrou hisobvarag‘iga joylashtiradi. Notarius esa bitimni tasdiqlab, shartnomani rasmiylashtirgach, mablag‘lar eskrou hisobvarag‘i orqali o‘tkaziladi.

Eskrou tizimi hisob-kitoblar xavfsizligini oshirish va fuqarolar uchun xavflarni kamaytirishga qaratilgan. Bu tizim orqali “pulni oldin berish kerakmi yoki keyinmi?” degan savollarga barham beriladi.

“Eskrou” (inglizcha “escrow”) — pul yoki mol-mulkni uchinchi shaxs orqali vaqtincha saqlashni anglatadi. Ya’ni, xaridor tomonidan to‘langan mablag‘ sotuvchi o‘z majburiyatini to‘liq bajarmaguncha muzlatilgan holda saqlanadi.

Natijada, sotuvchi o‘z xizmatini yoki tovarni topshirgach, to‘lovni olishiga ishonch hosil qiladi, xaridor esa pul to‘lab, mahsulot yoki mulksiz qolib ketish xavfidan himoyalanadi.

Yangi tartib ko‘chmas mulk va avtomobillar bozorida shaffoflikni oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, firibgarliklarning oldini olish hamda bitim ishtirokchilarining huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Xushnud KARIMOV,
Eldor QURBONOV,
Nurafshon tumanlararo iqtisodiy sudining sudyalari

SO‘RAGAN EDINGIZ

ISHGA KIRISHDA SINOV MUDDATI – IMTIHONMI YOKI IMKONIYAT?



Ishga joylashish jarayonida eng muhim va mas’uliyatli bosqichlardan biri — sinov muddatidir. Bu davr nafaqat ish beruvchi, balki xodim uchun ham sinov maydoni hisoblanadi. Ish beruvchi xodimning kasbiy ko‘nikmalari, mas’uliyati, jamoaga moslashuvi va ishga munosabatini baholaydi, xodim esa yangi ish sharoitlari va jamoaga mosligini aniqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 129-moddasiga ko‘ra, sinov muddati xodimning ishga muvofiqligini aniqlash va ishni davom ettirish mas’uliyati haqida qaror qabul qilish uchun belgilanadi. U mehnat shartnomasida tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi. Agar shartnomada qayd etilmasa, xodim sinovsiz ishga qabul qilingan hisoblanadi.

Quyidagi shaxslar ishga qabul qilinganda sinov muddati belgilanmaydi: homilador ayollar, 3 yoshgacha bolasi bor ayollar yoki yolg‘iz ota, zaxiraga qo‘yilgan ijtimoiy ehtiyojmand shaxslar, davlat granti asosida oliy ta’limni tugatib 3 oy ichida ishga kirayotgan bitiruvchilar, o‘quv yurtini tamomlab bir yil ichida birinchi marta mustaqil ishga kirayotganlar, 6 oygacha shartnoma bilan ishlaydigan xodimlar, 18 yoshga to‘lmaganlar, ilgari ish beruvchi bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bilan bekor qilganlar va ishlab chiqarishda o‘qitish shartnomasi bo‘yicha o‘qiganlar.

Odatda sinov muddati 3 oydan oshmaydi, rahbarlar, ularning o‘rinbosarlari va bo‘lim rahbarlari uchun esa 6 oygacha bo‘lishi mumkin. Sinov muddati davomida xodim mehnat shartnomasidagi barcha huquqlarga ega: ish haqi, mehnat staji, mehnat ta’tili huquqi saqlanadi. Bu davrda xodimni kamsitish yoki asossiz ishdan bo‘shatish taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodim yoki ish beruvchi istalgan vaqtda mehnat shartnomasini bekor qilishi mumkin, buning uchun kamida 3 kun oldin yozma ogohlantirish yetarli.

Sinov muddati xodim uchun ish sharoitlarini o‘rganish, jamoaga moslashish, malaka va qobiliyatini ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Ish beruvchi esa xodimning haqiqiy malakasini baholab, mas’uliyatsiz yoki ishga mos bo‘lmagan xodimni erta aniqlashi mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, sinov muddati — mas’uliyatli imtihon va muvaffaqiyatli hamkorlik sari ilk muhim qadamdir.

Ruxshona ZARIBBOYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Yuz o‘tmishdan bir sado

MALIK EGAMNING “BEKOBODNOMA”SI



Malik Egam (Egamov Malik) pedagog, shoir, publitsist 1945-yilda Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanida tug‘ilgan. Bolaligida oilasi Bekobodga ko‘chib kelib, “Taqachi” qishlog‘ida yashagan. Hozirgi 39-maktabni tamomlab, Xo‘jand davlat pedagogika institutida tahsil olgan. Ustoz ko‘p yillar Bekobod pedagogika bilim yurtida yoshlarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berish barobarida qizg‘in ijod bilan shug‘ullangan. Uning o‘nga yaqin she’riy va publitsistik to‘plamlari chop etilgan.

Malik Egam shoir va pedagog ustoz sifatida tumanda o‘z muxlislariga ega bo‘ldi, biror bir tadbir shoir ishtirokisiz o‘tmas, she’riyat va adabiyot uchrashuvlarida, to‘ylar va yubileylarda shoirning she’rlari qarsaklar sadosi ostida yangrardi.

Shoir ijodining eng yuqori pallasi 80-yillar boshiga to‘g‘ri kelgan, u butun vujudi bilan ijodga sho‘ng‘igan, she’riyat bilan bir qatorda yurt tarixi, xususan viloyatimizning ko‘hna va hududi katta bo‘lgan Bekobod tumani tarixini o‘rganishga kirishgan edi. Bu kitob yaratilgunicha Malik Egam necha-necha bekobodlik otaxonlar, urush va urushdan keyingi yillarda tumanni yelkasida ko‘tarib, og‘ir davrlardan olib chiqqan insonlar xonadonlarida bo‘lib, ulardan tarixiy voqealar va xotiralarni yozib oldi. Tuman, viloyat arxivlaridan manbalar yig‘di, unutilib borayotgan tarixni changlardan tozalab, kitob shakliga keltirdi.

Natijada 1995-yil “Bekobodnoma” ocherklar kitobining 1-qismi, 1996-yilda esa ikkinchi qismi nashrdan chiqdi. Bu haqda Malik Egam kitobning kirish qismida shunday yozadi: “1992-yilning boshlarida Bekobod tumani hokimiyati O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ta’lim olayotgan bekobodlik yoshlarni yig‘ib, bir piyola choy ustida gurung o‘tkazdi. Shu narsa ayon bo‘ldiki, ko‘pchilik yoshlar o‘zi tug‘ilib o‘sgan Bekobod tumani tarixi va uning odamlari haqida to‘liq tasavvurga ega emas ekanlar.

O‘sha gurungdan olingan saboq sabab, ushbu kitob dunyo yuzini ko‘rdi. Shu o‘rinda qimmatli ma’lumotlarni to‘plashda menga yaqindan yordam bergan qahramonlarimning avlodlariga, Jumabozor qishlog‘idan Mamatqul bobo Xoliqulovga, shuningdek, kitobning yaratilishida homiylik qilgan Bekobod tumani hokimi Muhammadali Vahob o‘g‘li Rasulovga chuqur minnatdorchilik bildiraman.”

Ushbu tarixiy ocherklar kitobi o‘sha yili tumandagi barcha korxona-tashkilot, ta’lim muassasalari va mahallalarga tarqatildi.

Nurali JALIL,
Bekobod tumani tarixini yozish bo‘yicha ishchi guruh a’zosi

BEKOBOD – KENG BESHIK

Har birimizning qalbimizdagi Vatan tuyg‘usi Bekobod nomi bilan shakllangan.

Abdulla Avloniy debdurki, har bir kishining tug‘ilib o‘sgan qishloq, shahar va mamlakati shul kishining Vatani deyilur. Har kim tug‘ilg‘on, o‘skon yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu Vatan hissi hayvonlarda ham bor.

… Biz turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi arablar Arabistonini, qumliq, issiq cho‘llarini, eskimolar shimol taraflarini, eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z Vatanlarini tashlab, hijrat qilurlar erdi. Vatandan uzoq ketsak, bizni “tortib” keltiraturg‘on quvvat o‘z Vatanimizning, ona tuprog‘imizning mehr-u muhabbatidir…

Shu o‘rinda Bekobod so‘zini o‘ylab ko‘raylik. Bu kalima faqat bekobodlikkagina emas, bani o‘zbeklarga tushunarli bo‘lganligi bilan ham yaqindir. Ushbu kalomning bek qismi O‘zbekiston, o‘zbek so‘zlaridagi bek so‘zining aynan o‘zi ekanligi biz bekobodlikka faxr bermaydimi.

Endilikda Bekobod ham hozirda chet-chetlarda yurgan o‘g‘il-qizlariga Vatan tuyg‘usini beruvchi muqaddas makonga aylandiki, uning ham topinar, tanti, zukko ota-onalari, butun Turkistonga tanish bo‘lgan shamoli o‘shal farzandlarini sog‘intirib yurganini eslash kifoya.

Keyingi yuz yillikda Bekobodda o‘nlab qishloqlar qad ko‘tardi. To‘qay va cho‘ldan iborat bo‘lgan voha yuz ming kishini tebratayotgan beshikka aylandi. Zomin, O‘ratepa, Xo‘jand, Mo‘g‘ul va Qurama tog‘i etaklaridan oqib kelgan o‘troq aholi qatlamiga Rossiya, Farg‘ona, Andijon, Samarqanddan ko‘chirib keltirilgan el qo‘shildi.

Hamma yerda bo‘lgani kabi Bekobodda ham bozor bor, dallol bor, yaxshi-yomoni, muruvvatli, ishbilarmon, tadbirkor, mehmondo‘st, rahbarning ko‘ziga tik qarab gapirishni o‘ziga ep ko‘rmagan sodda xalqi bor. O‘sha xalq orasida o‘z tarixini, o‘z taqdirini go‘zal qilib yaratayotgan, bu yaqin atrofda hech kimning qo‘lidan kelmagan, eshitgan odamni taajjubga soluvchi, antiqa tadbirlar o‘ylab topuvchi insonlari bor.

Tarix: *Bekoboddagi “Dalvarzin” kanalining muallifi Tatyana Kalpakova nomli o‘ris ayoli ekanligini bekobodliklar yaxshi biladi. Mana shu ayol 1927 – 1929-yillar ichida 32655 gektar yerni sug‘orishga mo‘ljallangan, uzunligi qirq kilometrlik kanal loyihasini chizib tamomlaydi. Uni O‘rta Osiyo suv xo‘jaligi kollegiyasiga qo‘yib, tasdiqlatib olish uchun Toshkentga olib ketayotganida izvoshdan tushurib qo‘yadi. Papkasida yana uning nomiga yozilgan 60 ming so‘mlik chek qog‘ozi ham bor edi…*

Kalpakova tarjimoni va aravakashi Ergash Mamatqulov maslahati bilan ikkovi yakshanba kuni Jumabozorga keladilar. Ular bozorda bir kishining “Papka topib oldim, kimniki?” deya baqirayotganini eshitadilar. Topib olgan kishi Mamajon Ashrapboyev bo‘lib chiqadi.

Bugungi kunda o‘shal ayol mehnati va bekobodlikning oliyjanobligi bois sobiq Dalvarzin cho‘lida ajoyib bo‘ston paydo bo‘ldi.

Men Bekobodning 1900 – 1940-yillar tarixini o‘rganar ekanman, bir qator tarixiy manbalarda, Bekobod tarixiga oid arxiv materiallarida, ayrim keksa kishilarning suhbatlarida to‘rt bekobodlik kishining nomlarini tez-tez uchratdim.

Bular xoslik Abdumo‘min Yo‘lchiboyev, Kal qishlog‘idan Nurmat mingboshi Boybo‘tayev, chanoqlik Suvonqul mingboshi Jiyanboy o‘g‘li edi. Shuning bilan birga nomi hech qaysi yozma manbalarda qayd etilmagan, ammo bolaligi, kuchi, bilimi bilan tillarda doston bo‘lgan qushchilik Mavlon hoji Ashurboy hoji o‘g‘li edi.

Bu o‘rinda kitobxonda haqqoniy savol tug‘iladi. Nega aynan to‘rt kishi bo‘lar ekan, boshqalar yo‘qmidi? Menda ham shu savol bor edi. Bu savolga jumalik keksa rahbarlardan biri Mamatqul ota Xoliqulov shunday javob beradi:

- Buni o‘sha davrning siyosatidan axtarish kerak.



O‘rta Osiyoning hamma yerida bo‘lgani kabi Xo‘jand uyezdida ham 1924 – 1926-yillar Yer islohoti, 1929 – 1930-yillarda kollektivlashtirish ishlari boshlandi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu voqealar siyosiy harakterda edi.

Davr Mavlon hoji, Nurmat mingboshi, Suvonqul mingboshi, Abdumo‘min mingboshilarni siyosiy voqealardan chetlashtirdi, ya’ni ular saylash-saylanish huquqidan mahrum etildi, xullas, ular davrning ana shunday qonunsiz hukmiga duchor bo‘ldilar.

Mamatqul otaning bu javobi meni ana shu to‘rt kishining achchiq qismatini o‘rganishga undadi. Men avvalo o‘shal kishilarning avlodlari bilan uchrashdim.

Shu bilan birga O‘zbekiston tarixi, revolyutsiyagacha chor Rossiyasining O‘rta Osiyosdagi siyosatiga oid, Bekobod rayoni tarixiga oid manbalarga ham nazar qildim.

To‘rt kishining avlodlari bilan bir piyola choy ustida suhbat qilar ekanman, avlodlar hikoyasini o‘sha davr ruhiyatiga qarab tahlil qilishni unutmadim.

Mening o‘sha avlodlarga oldindan tayyorlangan savollarim bor edi. Bu savollar shuning uchun tayyorlangan ediki, ulardan olinadigan javoblar o‘sha davr ruhiga taqqoslanishi, shu bilan birga qahramonlarning shaxsiy hayotiga aniqliklar kiritishi ham kerak edi.

Ayyorona, shu bilan birga taxmin asosida tuzilgan bu savollarimga olingan javoblarni yuqorida o‘zim o‘rgangan manbalardagi tarixiy voqealarga solishtirishni ham esdan chiqarmadim.

Shu bilan birga o‘sha javoblarni 1900 -1970-yillar ruhiyatini nafaqat Bekobod tumanida, hatto butun O‘zbekiston bo‘yicha mukammal tahlil etish salohiyatiga ega bo‘lgan, ega bo‘lganda ham sog‘lom fikr tarzida bayon etish qobiliyatini o‘zida mukammallashtirgan 85 yoshli Mamatqul otaning hikoyalariga solishtirdim. Mamatqul otaning uch kechalik uzoq suhbatlari, avlodlar hikoyasi, ayrim tarixiy manbalar asosida Bekobodning to‘rt o‘g‘loni, ularning hayoti, shaxsiy kechinmalari, avlodlarning achchiq qismatini hikoya qilishga shu tariqa jazm etdim.

Malik EGAM

MUQADDAS SAFARDAN QALB SADOLARI



Bitiklar

Agar sen hushyorsen, o‘zingga yorsen,
Uyg‘oqsen, demakki, el ichra borsen.
Ibodat yo‘liga o‘tdingmi do‘stim,
Demakki, Allohga do‘st-u hamkorsen.

***

Labbaykadan boshlanadi ziyorat,
Ibodatga qilmagaysan xiyonat.
Tavof yo‘lin najot yo‘li deb biling,
Jaholatning o‘rnin bosgay diyonat.

***

Alloh meni ibodatga boshladi,
Hidoyatga, bir najotga boshladi.
Rahmonlarning karvoniga ergashdim,
Shukr deyman, saodatga boshladi.

***

Nafsing ila g‘azabingni tiya bil,
Har qadamda asabingni tiya bil.
Mo‘minlarning libosini kiyibsen,
Ozor chekib o‘ksimasin aslo dil.

***

Bizda ham do‘stlarim, bordir Zulayho,
O‘zin sevganiga yordir Zulayho.
Odob jamolini ko‘rsata bilsang,
Yusufdek husningga zordir Zulayho.

***

Nurli shahar Madina-yu Munavvar,
Yuzlaringga nur yog‘ilar boqsang gar.
Bul shaharning chiroyiga to‘ymadim,
O, naqadar jozibali, jarangdor.

***

Makkatilloh azonidan uyg‘ondim,
Alloh o‘zi chorladi deb inondim.
Tovof etdim Baytullohning o‘zini,
Baxt mash’alin ko‘targandek quvondim.

***

Bildingmi, azizim, nima o‘qildi,
Masjidul Haramda juma o‘qildi.
Yuz mingta namozning savobin oldik,
Oltindan ziyoda duo o‘qildi.

***

Allohim, Baytingni tavof etgayman,
Qancha ajr bersang, olib ketgayman.
Amring vojib erur itoatdamen,
Sen-la murodimga, albat, yetgayman.

***

O‘zga bir olam-u jahona keldim,
Chindan bir ilohiy Koshona keldim.
Faqat men o‘zingga keltirdim iymon,
Faqat men o‘zingga ishona keldim.

***

Eng ulug‘san, eng buyuksan, yagona,
Olam ahli shoshilgay shul makona.
O, qandayin sharaflarga burkading,
Sening bilan bir uydamiz, hamxona.

***

Yo‘lga chiqsam yo‘limdasan Allohim,
Biz yaratgan ilmdasan Allohim.
Barchasini sanab o‘tmoq ne hojat,
Eng avvalo dilimdasan Allohim.

***

Mayli, ishla, Alloh uchun terga tush,
Savob degan ne’mat ila birga tush.
Mansab ila sen havolab ketmagin,
Inson bo‘lsang, osmondamas, yerga tush.

***

Aniq bo‘lsa niyatlaring va maqsad,
Quvvat bergay senga Hajar ul-asvad.
Sen onadan tug‘ilgandek pok bo‘lding,
Endi savob yozilajak qatma-qat.

***

Niyatlardan hosil bo‘lgay muroding,
Parvozlarga shaydir ko‘ngil g‘iroting.
Tavoflardan nur yog‘ilar yuzingga,
Mamnun boqar senga ahli zuryoding.

***

Qaysi yo‘ldan ketadirsan, anglagin,
Ikki yo‘ldan birisini tanlagin.
Rahmon senga eshiklarin ochganda
Shayton bilan do‘st tutinib qolmagin.

***

Tavof etdim Safo – Marva orasin,
Sa’y qilurmiz topib zikr chorasin.
Duolarga qo‘l ochurmiz uch bora,
Allohimga hamd-u sano ey, Rasul.

***

Ziyoratlar kundan kunga siljidi,
Go‘yo yurak uchmoq istab sapchidi.
Amallarni bajarmoqqa yo‘l ochar
Xadicha-yu Oysha ona masjidi.

***

Ehrom asli Allohimga ehtirom,
Ka’ba ichra aylanarsan beorom.
Go‘yo yangi tug‘ilgandek bo‘larsan,
Tanda quvvat, dilda esa bir orom.

***

Sen chaqirding, hozir bo‘ldi insoning,
Muhabbatdan yaralgandir har oning.
Labbay deya huzuringda turibmen,
Mehmoningman, mehmoningman, mehmoning…

***

Eng avvalo Alloh, seni o‘ylayman,
Buxoriydan qizg‘in salom yo‘llayman.
Sendan qudrat olib yashnar Vatanim,
Yurt tinchligin, obodligin qo‘llayman.

***

Gunohimiz bo‘lsa Uhud tog‘icha,
Alloh o‘zing avf etgaysan boricha.
Tavof qildim, oqizdim ko‘z yoshlarni,
Ko‘nglim toza xuddi tog‘lar qoricha.

***

Bizlar uchun vojib erur Farmoning,
Ulug‘ erur barcha mulki arkoning.
Itoatning yo‘llari keng ochildi,
Ibodatga chorlar bizni har oning.

***

Agar bunda yursak sog‘-u salomat,
Eng avvalo aytajakmiz salovat.
Zikrimizda faqat sening ismingdir,
Sening uchun bor ehson-u saxovat.

***

Alloh desam, ko‘zdan uyqu qochgaydir,
Osmon menga bor yulduzin sochgaydir.
Gunohlaring gar mag‘firat aylasa,
Rahmat degan darvozasin ochgaydir.

***

Rahmat suvi yog‘ilmoqda samodan,
To‘yib-to‘yib nafas oldim havodan.
Subhidamda tong qo‘shig‘in tinglayman,
El uyg‘onar Alloh degan navodan.

***

Alloh uchun ibodatni boshladim,
Ko‘ngildagi bor kibrni tashladim.
Ummatlarning qatoriga kirdim-u
Muhammad deb ko‘zlarimni yoshladim.

***

Men ozodmen, ibodatning hurimen,
Daryo bo‘lsam, Amusi ham Sirimen.
Ey, Alllohim, huzuringda turibmen,
Avval taslim bo‘lganlarning birimen.

***

Labbaykani aytib eshik qoqarman,
Yuragimda ishq olovin yoqarman.
Nafasimni rostlab yashil yo‘lakda
Men qasringga muhabbat-la boqarman.

***

Yetib keldim go‘yo Arshi alodan,
O‘zing asra Tangrim, turli balodan.
Ka’batulloh azonini tinglagach
Ko‘nglim taskin topdi sirli navodan.

***

Nechun o‘zni Ka’ba sari shoshirdim,
Bor vujudning tezligini oshirdim.
Qalb ichindan otildi bor nidolar,
Neki topsam, Tangrim, senga topshirdim.

***

Eng avvalo imondandir itoat,
Imon ila topajaksan shafoat.
Ziyorating qabul etgach Allohim,
Senga mundin yo‘qdir ortiq saodat.

***

Yaxshi bo‘lsang, yaxshilikni yoqlagay,
Yuz mingtalab savoblarni taxlagay.
Darig‘ tutmas Parvardigor hamisha,
Do‘zax degan bir azobdan saqlagay.

***

Avval do‘stim, niyatingni aytgaysen,
Shunda sen ham murodingga yetgaysen.
Ey, dindoshim, Allohimning uyidan
Eng tabarruk mehmon bo‘lib qaytgaysen.

***

Tavof etdim tinim bilmay Ka’bani,
So‘ng aylandim Safo bilan Marvani.
Niyat ila joynamozga bosh qo‘ydim,
Takror aytdim chin yurakdan tavbani.

***

Alloh desam, bor mushkulot yechilgay,
Yo‘llarimga iymon nuri sochilgay.
Gunohlardan forig‘ bo‘lgach bu ko‘ngil,
Ko‘zlarimiz endi moshdek ochilgay.

***

Zam-zam ichib niyat qiling mo‘minlar,
Niyat ichra yo‘qolmasin o‘rninglar.
Chanqog‘ingni bosib tavof aylasang
Savoblaring oshar yana o‘n minglar.

***

Bul makonga duo istab kelganlar
Har hikmatni duoda deb bilganlar.
Aytilajak bobomeros bir naql:
Oltin olma, duo olgin deganlar.

***

Inson borki, nom qoldirsa, qaniydi,
Mard o‘rnini mard to‘ldirsa, qaniydi.
Nomardlarga aslo kuning qolmasin,
O‘ldirsa ham mard o‘ldirsa, qaniydi.

Ashurali BOYMUROD

Jamiyat

ODAMLAR GAPIRSIN!

Kuzatishimcha, odatda yaxshilik bilan boshlangan biror an’ana bora-bora yomon odatga aylanib qolishi mumkin ekan. Bu ilmsizlik – jaholatning hosilasi bo‘lsa, ajabmas. Fikrimni bir misol bilan tushuntiraman.

Bolaligimda mahallamizda dadam rahmatli bilan ketayotgan edik. Darvozalardan biriga qoqilgan taqaga ko‘zim tushdi (taqa – otning tuyog‘iga qoqiladigan temir moslama). Avval ham ko‘rib yurardim, ammo ma’nosini bilmasdim. Dadamning tushuntirishlaricha, avvallari odamlar asosan otda safarga chiqqan. Mehmonxonalar bo‘lmagani uchun biror kimning uyini taqillatib, shu erda tunashga joy so‘ragan. Albatta, otliqqa otxona va yem ham kerak bo‘lgan. Boy va o‘ziga to‘q kishilarda ot va tabiiyki otxona bo‘lgan. Shuning uchun ular kechasi kelib qoladigan musofirlarga “Bizning uyda o‘zingizga ham, otingizga ham qolishga sharoit bor, bemalol eshigimizni taqillatavering”, degan ishorani bildirish maqsadida ko‘cha darvozasiga taqa qoqib qo‘ygan.

“Keyinchalik odamlarda (diniy) ilm kamayib ketdi. Ular ota-bobosidan qolgan darvozalardagi taqani boylik keltiradigan tumor sifatida ko‘ra boshladi. Eng qizig‘i, taqani ostonaga ham qoqib qo‘yishyapti. Bu – jaholatdan. Boylikni talab qiladigan odam mehnat qilishi va Allohdan so‘rashi kerak!” deb tushuntirdilar dadam rahmatli.

Bu gaplarda qanchalik ilmiy asos bor, rosti bilmayman. Lekin mantiq bor nazarimda. Xalqimiz orasida keng tarqalgan “Odamlar nima deydi?” degan tushuncha haqida ham xuddi shunday fikr bildirsak, adashmaymiz. Chunki azaldan bizda mahalla-ko‘y bir-biriga ham namuna, ham hakam bo‘lib kelgan. “Bir bolaga etti mahalla ota-ona!” degan maqol ham fikrimizni quvvatlaydi. Yoki “Suyunchi” filmidagi Anzirat xola obrazini olaylik. U ikki tengdoshi bilan mahalladagi barchaga ta’sir o‘tkazadi, tarbiya beradi. Masalan, eshigiga qulf osgan “shaharlik”, kasalxonadagi otasidan xabar olmayotgan “Hojimurodning o‘g‘li”, xaridorlarga qaytimini bermayotgan magazinchi G‘aybulla (Hojimurod buvani kelinining ta’biri bilan aytganda) “qishloq prokurorlari”ning e’tiboridan chetda qolmaydi.

Xullas, biror nomaqbul harakat qiladigan kishiga “Mahalla-ko‘ydan uyalsangchi!” deb tarbiya berilgan. Birov oilasida qattiq baqir-chaqir qilishga boshqalardan hayo qilgan bo‘lsa, boshqasi qizi yo kelinига milliy qadriyatlarimizga zid kiyim kiyishiga odamlarning gap-so‘zidan qo‘rqqan holda izn bermagan. Shu tariqa “Odamlar gapirmasin!” degan tushuncha xalqimiz uchun o‘ziga xos me’zon-tarozi bo‘lib xizmat qilgan. Bu holat qaysidir ma’noda ko‘rinmas kuch orqali insonlarni tarbiyalagan, tartib-intizomga chaqirgan. Qaysidir ma’noda millatimizning o‘ziga xos yutug‘i bo‘lgan, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Afsuski, oxirgi yillarda mana shu tushuncha ham aynidi. Endi odamlar gapirmasin, deb emas, aksincha, “odamlar gapirsin” degan o‘y bilan harakat qiladigan bo‘lib qoldik. Uy qursak, ichki tomoni loy suvoq qilinmagan bo‘lsa ham ko‘cha tomonini yaltiratib qo‘yamiz – “Ha?” desa, odamlar gapirsin, deymiz. Yillab xorijda qiynalib topgan pulimizga eng taniqli san’atkorni katta mablag‘ evaziga opkelib, dang‘illatib to‘y qilamiz: “Ha?” – “Odamlar gapirsin!” Qarz-havola qilib qimmatbaho mashina sotib olamiz: “Ha?” – “Odamlar gapirsin!” Umradan kelgan otamizni to‘y qilib, tuyaga mindirib kutib olamiz: “Ha?” – “Odamlar gapirsin!” Yarim kechasi qo‘shnilarimiz tinchini buzib, “Bu mening onamdir!” degan qo‘shiqni ayttiramiz: “Ha?” – “Odamlar gapirsin!”.

Avvallari bir uy, bir dahlizda o‘nlab ini-singillari bilan katta bo‘lgan zamondoshlarimiz uy qurishda bir-biri bilan musobaqalashishga kirishib ketdi. Bir hovlida o‘nlab xonalarni dang‘illatib quryapmiz. “Nimaga shuncha uy quryapsiz?” deb so‘rasa, “To‘y-to‘ychiqda kerak bo‘ladi-da” deb javob beramiz. Darhaqiqat, to‘ylarda kerak bo‘lar, lekin boshqa payt chang bosib yotadi – ehtiyoj yo‘q.

Bir do‘stimiz o‘n sotixli hovlisiga aylantirib ikki qavatli uy soldi. Hozirda bitta-yu bitta o‘g‘li Toshkentda ishlab-yashayapti, qizlar uzatilgan, hayhotdek hovlida, o‘zining gapi bilan aytganda, “er-u xotin so‘ppayib” o‘tiribdi. “Esim yo‘q ekan, shuncha uyni bekor quribman. Xonalarni to‘ldirishga ham qancha mablag‘ ketgan. O‘g‘lim poytaxtda oilasi bilan ijarada turadi. Hozir avvalgidek topish-tutish yo‘q. Hovlimni sotib “dom” olib beray desam, qishloqda xaridor topilmaydi”, deydi u biroz alam bilan.



Mahallalarda ayrim dang‘illama hovlilarga ko‘zimiz tushadi. Juda katta mablag‘ evaziga qad rostlagan. Egasining qancha umri va mehnati sarflangan ekan deysiz qarab. Odamlar “Falonchi dang‘illatib uy qilibdi” deb gapirar ham, el og‘ziga ham tushilar. Eng afsuslanadigan joyi shundaki, ularning aksariyatining hammomi yo‘q. Yashash uchun qulay sharoit yaratilmagan. “Mahallada duv-duv gap” filmidagi ochofat cholning xotini aytmoqchi, qilgan to‘ylarimiz va qurgan uylarimizning “dong‘i yetti mahallaga yetmasa”, ko‘nglimiz to‘lmaydi.

Ammo... Qachongacha umrimizni boshqalarning gapi uchun xarjlab yashaymiz? Qachongacha o‘zimizni boshqalar oldida “boy va behojat” ko‘rsatish uchun topganimizni sovurib yuramiz? Bu tubanlikdan, bu jarlikdan chiqib ketishning chorasi bormi? O‘zlikni anglash uchun nima qilishimiz kerak? Bunaqa savollarning cheki-chegarasi yo‘q. Yechim esa, o‘sha – hamma biladigan gap: ilm-u ma’rifatni yuksaltirish kerak. Inson tafakkuri o‘zgarmagunicha hayot tarzi yaxshilanmaydi. Bu borada imkon qadar targ‘ibot-u tashviqotni kuchaytirishimiz zarur, deb o‘ylaymiz. Odamlar gapirsin, deb emas, odamlar gapirmasin, degan o‘y bilan yashashga qaytishimiz kerak. Yana ham bilmadim...

Abdulaziz MUBORAK,
“Hilol” jurnali 6-(75) son

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2025-yil 24-dekabrdagi 03-07/8262-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

AJOYIB NE’MAT



Turli xil sababga ko‘ra, ko‘cha-ko‘yda, jamoat joylarida har kuni har xil odamga duch kelamiz. Ko‘p holda ularning ibratli xatti-harakatlarini, qilayotgan muomalalarini ko‘rib “farosatli odam ekan-a” deb qo‘yamiz. Ammo guruch kurmaksiz bo‘lmaydi, deganlaridek, ba’zi zamondoshlarimiz ayrim paytlarda o‘zlari bilmagan holda bir ishni bajarayotganida katta oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan kichik xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Bu holatga guvoh bo‘lganlar esa ularga qarab: “shunga ham farosating yetmadimi?” deya dakki beradilar. Xo‘sh, farosat degani nima o‘zi?

Masalan, kimdir ko‘chaga, biron-bir daraxt ostiga ikkita-uchta qog‘oz yoki ichimlikdan bo‘shagan idishni tashlab ketdi, deylik. Go‘yoki unchalik vahimali holat emas. Biroq, ko‘p o‘tmay, bu joyga boshqalar ham o‘z chiqindilarini tashlay boshlaydilar. Oqibatda bir necha kundan keyin o‘sha daraxt osti axlatxonaga aylanib ketishi hech gapmas.

Yoki bir haydovchi birovning uyi, ya’ni darvozasi oldiga mashinasini qo‘yib ketdi, deylik. Bir qarashda u darajada vahimali holat emas. Ammo o‘sha xonadonda yashaydiganlarning birontasi, Alloh asrasin, kasali xuruj qilib qolsa-yu uni zudlik bilan shifoxonaga olib borish zarurati tug‘ilsa, yoxud o‘sha xonadonda boshqa biron kor-hol ro‘y bersa-yu uy egasi o‘z mashinasini ko‘chaga olib chiqa olmasa, bu holat nima bilan yakun topishi mumkinligini tasavvur qilib ko‘ring!

Shu o‘rinda “yuqorida tilga olingan farosatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun nima qilish kerak?” degan savol tug‘iladi. Buning uchun, avvalo, odamlarda mas’uliyatni his qilish, tartib-intizomga rioya qilish kabi odatlarni shakllantirish zarur. O‘z navbatida, bu narsalarni ularga imkon qadar bolalikdan o‘rgatishimiz kerak. Zero, farzandlarimizga qanchalik ertaroq, ya’ni kichikligidan tarbiya bersak, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatsak, katta bo‘lgunlaricha bu narsalar hayot tarzining bir bo‘lagiga aylanadi.

Qizig‘i, dunyoning hech bir joyida farosatdan dars berilmaydi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, farosat ilmi bor, lekin uni o‘rgatadigan maktab yoki madrasalar yo‘q. Mantiqan olib qaraganda, farosatga ega bo‘lishning ikki yo‘li bor. Birinchi holatda farosat bandaga Alloh taolo tomonidan beriladi. Bu tug‘ma farosat. Ikkinchi turdagi farosatga inson izlanib, kimdandir o‘rganib ega bo‘ladi. Bu – orttirilgan farosat.

Orttirilgan farosat, avvalo, farosatli ota-onaning tarbiyasi orqali olinadi. Imom G‘azzoliy asarlarida keltirilishicha, bu jarayon ota-onaning farzandlari qilayotgan ishini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. E’tiborlisi, buyuk alloma tomonidan bir necha asr avval e’tirof etilgan bu tavsiyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Aytaylik, ona qiziga “kirlarni yuvib qo‘y, qizim” deganidan keyin farzandi kiyim-kechaklarni qanday qilib yuvayotganini, qanday yoyayotganini kuzatishi kerak: qo‘lda yuvadigan kirlar bor, kir mashinada yuviladigan kirlar bor, ochiq joydagi dorga yoyiladigan kirlar bor, sal panaroq joyga yoyilishi kerak bo‘lgan kir bor. Ona shularni nazorat qilib, farzandining kamchiliklarini bartaraf etishi zarur. Zero, u ertaga kelin bo‘lganida ota-ona ahamiyat qilmagan kamchiliklarga qaynonasi-yu qaynotasi e’tibor qaratadi.

Ota ham o‘g‘liga ish buyursin-da, keyin uni nazorat qilsin. Ishida kamchilik ko‘rsa, “mana bu ishni unday qilma, bunday qil, mana bu ishni mana bunday qil”, deb to‘g‘rilasin. Masalan, uyda biror ish quroli yoki jihoz ishlatilganida ish tugashi bilan uni tezda yuvib, tozalab, joyiga qo‘yish maqsadga muvofiq. Dasturxon atrofida o‘tirishning ham o‘ziga yarasha qoidalari bor – ularni ham obdon o‘rgatish kerak. Aks holda ularga amal qilishni o‘rganmagan bola yigit bo‘lib davrada o‘tirganida do‘stlari oldida, oila boshlig‘i sifatida qo‘ni-qo‘shni, qarindoshlar oldida xijolatli ahvolga tushib qolishi mumkin.

O‘z navbatida, ijtimoiy axloq qoidalariga yaxshigina rioya qiluvchi shaxs farosatdan bebahra qolgan, ya’ni farosatsiz bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tish joiz. Jumladan, chiroyli kiyingan, ozoda, saranjom-sarishta, salom-alik odoblarini “suv qilib ichib yuborgan” kishi ba’zan uyali telefondan foydalanayotganida (baland ovozda gaplashib, yon-atrofdagilarga xalaqit qilgan holda), bemorni ziyorat qilish paytida (tashxis javobini aytib qo‘yib, kasal odamni tushkunlikka tushirib qo‘ygan holda), ulamolarga savol berish chog‘ida o‘zi uchun umuman kerak bo‘lmagan savollarni so‘ragan holda oddiy qilib aytganda “qovun tushirib” qo‘yadi.

Bo‘lar-bo‘lmas savol berish yaxshi ish emasligi haqida Qur’oni Karimda ham marhamat qilinadi: “Ey iymon keltirganlar! Har xil narsalarni so‘rayvermanglar. Agar sizga ayon qilinsa, o‘zingizga yomon bo‘ladi. Agar ular haqida Qur’on nozil qilinib turgan chog‘da so‘rasangiz, sizga izhor qilinadi. Alloh ularni afv qildi. Alloh g‘afur va haliym Zotdir” (Moida surasi, 101-oyat).

Johiliyat zamonidan chiqa boshlagan odamlarning tabiati har xil bo‘lgan. Ular orasida Nabiy sollallohu alayhi vasallamga bo‘lar-bo‘lmas savollar bilan murojaat qiluvchilari ham ko‘pchilikni tashkil etgan. Ba’zilari o‘zini ko‘rsatish uchun, ba’zilari fitna qo‘zg‘atish uchun va yana boshqalari farosati yetmaganidan ham savol beravergan. Shunda mazkur oyat nozil bo‘lgan. Sir emas, bugungi kunda ham imom-domlalarimizga mantiqsiz, amalda qo‘llanmaydigan holatlar bo‘yicha g‘alati savol beradiganlar topiladi.

Farosatli kishi esa jamoat joylarida o‘z o‘rnini bilib gapiradi, har bir ishni, har bir harakatni o‘ylab qiladi. Bundan tashqari, bir voqea-hodisaning o‘sha voqea-hodisa sodir bo‘lishidan avval ro‘y berishini bilishga ham farosat deyiladi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, bashariyatning eng farosatlisi Muhammad alayhissalomdir. Qolaversa, Rasulluloh alayhissalomni yaxshi o‘rgangan, u zotga yaqin yurgan zotlar ham yuksak farosat sohibi bo‘lishgan. Masalan, Rasulluloh alayhissalomga yaqin yurgan zotlardan biri hazrati Abu Bakrni olaylik. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning vafotlaridan so‘ng musulmonlarga bosh bo‘lgan birinchi xalifa turli xildagi holatlar yuzaga kelganida chuqur o‘ylab, qaror chiqarganlar. Rivoyatlardan birida ta’kidlanishicha, Qur’oni Karimning “Bu kun sizga diningizni mukammal qilib berdim” (Moida surasi, 3-oyat) degan oyati nozil bo‘lganida hamma sahobiylar dinimiz mukammal bo‘ldi, deb xursand bo‘lishganida hazrat Abu Bakr Siddiq bu gapni eshitib yig‘laganlar. Ularning farosatlari nimaga yetdi, deb o‘ylaysiz? Gap shundaki, hazrati Abu Bakr “Din mukammal darajaga yetgan bo‘lsa, demak Rasulullohning ketish vaqtlari yaqinlashib qolibdi”, deya kuyinib, ko‘z yoshi qilganlar. Vaholanki, bunga ko‘pchilikning fahmi yetmagan.

Xulosa qilib aytganda, farzandiga imkon qadar kichikligidan to‘g‘ri tarbiya berib, unga farosat nimaligini tushuntirgan, nafaqat odobli, madaniyatli, balki farosatli bo‘lishni ham o‘rgatgan ota-ona ma’lum vaqt o‘tib, buning natijasini ko‘radi, inshaalloh. Binobarin, farosatdek ajoyib ne’matdan bebahra qolish qanday oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi endi sizga ma’lum.

“Hilol” jurnali 8-(77) son
O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2026-yil 3-martdagi 03/07/1680-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.
Manba: Islom.uz

MUNOZARA

O‘ZBEK XALQINING MILLIY G‘OYASI

– Men uzoq yillar ijtimoiy fan olimi sifatida o‘zbek xalqining milliy g‘oyasi haqida o‘yladim. Ko‘pchilik hamkasblarim qatori unga ilmiy-nazariy ifoda topish xususida bosh qotirdim. Tarixni, ulug‘ mutafakkirlarning asarlarini o‘qib-o‘rgandim, qancha-qancha dono zotlar bilan goh g‘oyibona, goh yuzma-yuz suhbat, bahs-munozaralar qurdim. Bu borada jahon tajribasi va amaliyoti ham e’tiborimdan chetda qolmadi. Yusufbek hojining so‘zlarini biroz o‘zgartirib aytsam, bu soch, bu soqol milliy g‘oya qayg‘usida oqardi. Aytish mumkinki, izlanishlar natijasida ba’zi bir ajoyib xulosalarga kelib, kutilmagan kashfiyotlar ham qildim.

Sovet davrida bu borada hech qanday muammo yo‘q edi. Karl Marks, Fridrix Engels, Vladimir Lenin kabi dohiylar biz uchun bu masalani uzil-kesil hal qilib bergan edilar. Kommunizm g‘oyasi butun Sovet Ittifoqi va sotslager mamlakatlari uchun ham siyosiy, ham milliy g‘oya sifatida qat’iy, o‘zgarmas postulat o‘laroq joriy etilgan edi. Kommunizm. Nuqta. Tamom. Bu g‘oyaning keyingi taqdiri haqida hozir gapirib o‘tirmaymiz.

Bugungi kunda esa ko‘p davlatlar o‘zlarini mafkuradan xoli, demokratik, erkin mamlakatlar qilib ko‘rsatish uchun milliy g‘oyasini imkon qadar ko‘z-ko‘z qilmaslikka intilar ekan. Masalan, AQShda “**Amerika manfaati – hamma narsadan ustun**” degan g‘oya “**amerikacha orzu**” degan tushunchaga juda ustalik bilan singdirib yuborilganini angladim. Turkiyada **turkchilik, ya’ni, panturkizm**, Eronda **shiizm**, Saudiya Arabistonida vahhobiylik goh oshkor, goh pinhona tarzda milliy g‘oya libosida namoyon bo‘lishini sezdim. Yoki Shimoliy Koreyada “**chuchxe**” – ya’ni, **faqat o‘zining kuch va imkoniyatlariga tayanish** fikri ustuvor bo‘lsa, Xitoy ochiqdan-ochiq “**Bozor kommunizmi**” g‘oyasini ilgari surar ekan. Belarus davlatining milliy g‘oyasi hammasidan ham ajoyib bo‘lib, ushbu davlatda “**белорусы должны стать белорусами**”, ya’ni, **beloruslar belorusga aylanishi kerak**, degan tamoyil bor ekan. Bunda belarus tili va madaniyati rus tili va madaniyatining soyasida qolib ketmasligi lozim, degan fikr mujassam bo‘lsa, ajab emas.

Milliy g‘oya haqida O‘zbekistonda yurt darg‘alari ham, jamiyatimizning gul-u gultojlari bo‘lmish olim-u fozillar, arbob-u adiblar ham keng mushohada yuritdilar. Ko‘p izlanishlar, muhokama va mulohazalardan so‘ng bu mavzuda tadqiqotlar, monografiya va risolalar, darslik va qo‘llanmalar, o‘quv dasturlari yaratildi va ta’lim-tarbiya tizimiga joriy qilindi.

Lekin bular meni qoniqtirmas edi. O‘zimga o‘zim tinimsiz savol berardim: xo‘sh, nima ekan bizning milliy g‘oyamiz? Uni hech kimda e’tiroz uyg‘otmaydigan, barchaga ma’qul keladigan bir mazmun va shaklda qanday ifoda etsa bo‘larkin?

Ya’ni, “**Jamiyatning orzu-intilishlari, tub manfaatlarini aks ettiradigan, bu yo‘lda yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy mavqeyi, bilim darajasi va dunyoqarashi, siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar, shu yurtda yashaydigan barcha fuqarolarni birlashtiradigan, safarbar etadigan, muntazam rivojlanib boradigan**” qaysi g‘oyani milliy g‘oya deb qabul qilsa bo‘larkin?

Bu savollar menga tinchlik, orom bermay qo‘ydi. Qancha-qancha kechalarni uyqusiz o‘tkazib, faqat shu to‘g‘rida o‘yladim. Bedor tunlarning birida kutilmagan, g‘alati bir fikr yarq etib, miyamda chaqmoq chaqnagandek bo‘ldi. Nihoyat, men o‘zbek xalqining milliy g‘oyasini topdim!

Bu fikr kimlargadir qanchalik g‘ayritabiiy, noilmiy, boringki, ahmoqona tuyulmasin, lekin ayni haqiqatdir. Men bu to‘g‘rida istalgan olim, istalgan muxolif bilan bahs-munozaraga tayyorman. Eng muhimi, o‘zbek xalqining milliy g‘oyasini juda muxtasar tarzda, bor-yo‘g‘i ikkita so‘z orqali ifoda etsa bo‘lar ekan. Ya’ni, asrlar sinovidan o‘tib, o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, tuproqda chirimaydigan metin bir tushuncha, sobit bir e’tiqod bo‘lib shakllangan, o‘zbek xalqining hayot va mamot tarziga aylangan bizning g‘oyamiz “**to‘y-hasham**” degan soddagina so‘zlarda mujassam topar ekan.

Bu o‘rinda “**to‘y**” so‘zi faqat to‘y-tantanani emas, balki milliy odatlarimiz bilan chambarchas bog‘langan, marjondek tizilib keladigan bir qator tushunchalarni – aza, ma’raka-marosimlarni anglatsa, “**hasham**” so‘zi dabdaba, namoyish, boyligi yoki mavqeyini (bor-yo‘qligidan qat’i nazar) ko‘z-ko‘z qilib, shundan chuqur mamnuniyat va qanoat his etib yashashni anglatadi.

Ta’kidlash joizki, to‘y-hasham – bu shunchaki an’ana yoki urf-odat emas, balki hayot va tafakkur tarzidir. An’ana va urf-odatni o‘zgartirsa bo‘lar, ammo hayot va tafakkur tarzini o‘zgartirib bo‘lmaydi. O‘zbek xalqining necha ming yillik tarixi bu haqiqatni yaqqol isbotlab beradi.

Keling, endi mana shu “to‘y-hasham” degan tushunchani milliy g‘oyaning mavjud qoida-mezonlari nuqtayi nazaridan tahlil qilib ko‘raylik. Demak, milliy g‘oyamizning birinchi talabi: **“jamiyatning orzu-intilishlarini, tub manfaatlarini aks ettiradigan**...” degan tamoyildir.

O‘zingiz ayting, o‘zbek millatining orzu-intilishlarini to‘y-hashamdan boshqa yana qaysi g‘oya bu darajada yorqin, to‘la va mukammal aks ettira oladi? O‘lmang, faqat va faqat to‘y-hasham.



Maqollar – xalq qalbining ko‘zgusi, deymiz. Xo‘sh, ana shu ko‘zguga boqib biz nimani ko‘ramiz? “Hammamizni to‘yga yetkazsin”, “To‘ydan boshing chiqmasin”, “Topgan-tutganing faqat to‘ylarga buyursin”, “To‘yga to‘yona bilan”, “O‘g‘il uylantirganga o‘ttiz yil tegma, Qiz chiqarganga qirq yil tegma” va hokazo.

Yurtimizda o‘tgan barcha ulug‘ allomalar, shariat peshvolari, shoir va mutafakkirlar orasida biron-bir zot yo‘qki, to‘y-ma’rakadan “dod” demagan bo‘lsa! Loaqal jadidlarning, bizning millatimizni xor-u rasvo qiladigan ikki narsa bor: biri – to‘y, biri – azadir, degan mazmundagi shikva-shikoyatlarini eslaylik.

Xo‘sh, milliy g‘oya aslida nima? Milliy g‘oya – millatning qon-qoniga, suyak-suyagiga singib ketgan, yengilmas ma’naviy kuch bo‘lishi kerak. Bu g‘oya uchun nafaqat bir guruh ma’rifatparvarlar, balki butun xalq o‘limga ham borishga tayyor bo‘lishi zarur. Bizda “to‘y-hasham” g‘oyasi ayni shunday kuchdir. U dinimiz arkonlaridan ham, ajdodlar o‘gitlari-yu davlat siyosatidan ham doimo zo‘r chiqib keladi. Unga bas keladigan, uni yenga oladigan bironta kuch dunyoda yo‘q.

Yurtimizda hukm surgan xonliklar davri-yu sovet hokimiyati ham, hozirgi mustaqil davlatimiz ham bu masalaning nafaqat ma’naviy, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, oilaviy tadbir va marosimlarni ixcham, kamxarj va kamtarona o‘tkazishga doimo katta e’tibor qaratib kelgan va kelmoqda. Bu borada hatto oliy farmonlar, farmoyish va qarorlar ham qabul qilingan.

Tarix sahifalarini titkilab o‘tirib, bu fikrimni tasdiqlaydigan yana bir misol topdim.

Buxoroning so‘nggi amiri Sayyid Olimxon 1911-yili “**Juda isrofli to‘ylarni tugatish to‘g‘risida**” farmon chiqargan. Unga binoan, to‘ylarda palovdan boshqa ovqat berganlarga 75 (yetmish besh) darra urish jazosi tayinlangan. To‘yga kelgan mehmonlarning bir-biriga chopon berish odati ham man etilgan. Ayni vaqtda, sunnat va nikoh to‘ylarida uloq va poygalar uyushtirish taqiqlangan. Shunday tadbirlarni tashkil etganlarga hatto o‘lim jazosi belgilangan. Lekin el-ulus o‘z bilganidan qolmagan.

Mana, yer yuziga koronavirus degan balo keldi. Hukumat xalq qayg‘usini o‘ylab, to‘ylarni o‘ttiz kishidan oshmaydigan qilib o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqardi. Lekin... lekin el baribir “to‘y-hasham” degan maqsad-maslagidan qaytmadi. Bu to‘ylar uch kunlab davom etdi, odamlar o‘z jonini garovga qo‘yib, to‘y-ma’rakalarda yurdi. Qanchasi shundan o‘lim topdi.

Bundan uch-to‘rt yil burun sobiq shogirdlarimdan biri bilan ko‘rishib qoldim. O‘sha vaqtda u Hukumatda, mas’ul lavozimda ishlardi. Negadir xomush, parishon ko‘rindi. So‘ramasam ham, nima uchundir dardini menga yordi: uch qiz, bir o‘g‘li bor ekan. Ikkita qizini uzatibdi, endi uchinchisiga sovchi kelayotgan ekan. O‘g‘li yettinchi sinfni bitiribdi.

“Domla, – dedi u yig‘lagudek bo‘lib, – bu “to‘y” degan balo meni xarob qildi. Xotinimni taniysiz, u ham shogirdingiz, universitetda birga o‘qiganmiz, biologiyadan fan doktori, professor. Hozir bir institutda prorektor, xotin-qizlar faoli. Maktabda ham, oliy o‘quv yurtida ham ruscha o‘qigan, aspirantura, doktoranturani Moskvada tugatgan. O‘zbekchani qiynalib, “твоя-моя” qilib gapiradi. London-u Parijlarga ilmiy konferensiyalarga borib, ingliz tilida sharillatib ma’ruzalar o‘qiydi. Xullas, o‘ta ilg‘or, superzamonaviy bir xonim. Lekin shundoq ayol mana shu to‘y-ma’raka masalasiga kelganda o‘qimagan, o‘ta johil, lattaparast bir xotindan ham battar bo‘lib qoladi. Jon xotin, mana shu odatlarni sal kamaytiraylik, imkonim yo‘q, desam, jon-poni chiqib ketadi. Ko‘zini ola-kula qilib, hech narsani bilmayman, bilishni ham xohlamayman, deb turib oladi.

Nima, senlarning aytganingni qilaman, deb pora olib qamalib ketishim kerakmi, desam, xo‘sh, boshqalar qanday qilib eplayapti, otalik burchingiz, bajarasiz, tamom-vassalom, deydi zang‘ar. Bo‘lmasa, men o‘zim qudalar bilan gaplashay, desam, nima, esingizni yeb qo‘yganmisiz, qaysi quda bunga ko‘nadi, deb meni mot qiladi. Revolyutsiyani mendan boshlama, avval butun O‘zbekiston xotinlari shu yo‘lga o‘tsin, keyin men ham rozi bo‘laman, deydi. Qizlarim qaynonasi-yu erining ta’na-dashnomiga qolib, ko‘z yoshi daryo bo‘ladigan bo‘lsa, men bunga sira-sira chidolmayman, deydi”.

Amaldor shogirdimning arzi hol qilishdan maqsadi bor ekan. Ya’ni, men bu salbiy illatlarni qoralab bir kitob yozsam, u chiqarishga yordam berar ekan. “Domla, sizning obro‘yingiz baland, butun O‘zbekiston hurmat qiladi, shu ishni qilsangiz, savobga qolardingiz, zora bu xotin zoti sal-pal insofga kelsa”, dedi.

Men, albatta, ko‘ngil uchun yo‘q demadim. Garchi mendan qancha dono, qancha buyuk insonlar bu mavzuda qanday o‘tkir, ta’sirchan kitoblar yozib, maqsadga erisha olmagan bo‘lsalar-da, odamning yuzi issiq, men bir o‘ylab ko‘ray, deb qutuldim. Axir, shogird aytgan illatlardan o‘zim ham xalos bo‘lmagan bo‘lsam, bu to‘g‘rida kitob yozishga mening qanday ma’naviy haqqim bor?

Bu borada bitta, faqat bitta misol keltirmoqchiman, lekin shuning o‘ziyoq kifoya, deb o‘ylayman. Bechora Abdulla Avloniyning qayg‘u-hasratiga bir zumgina quloq tuting:

“Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?” degan savol keladur. Bu savolga, “Birinchi – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”, deb javob bersak, bir kishi deyurki: “Qaysi onalarni aytasiz? Bilimsiz, boshi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar?” der. Mana bu so‘z kishining yuragini ezar, bag‘rini yondirar. “Otasiga nima deysiz?” desak, “Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zi qiymagan, zamondan bexabar otalarni aytursizmi? Avvalo, o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmak lozimdur”, der. Mana bu so‘zni eshitgach umid qo‘llari qo‘ltiqqa urilur”.

Qaytib amaldor shogirdni ko‘rmadim. Hozir, bilmayman, qayerda ekan, ishqilib, qamalib ketmagan bo‘lsin.

Bir o‘zbek, musulmon odam umri davomida qancha to‘y-hasham qilishi kerak, bilasizmi? Mana, bir sanab ko‘raylik: **tug‘ruq to‘yi, ya’ni, chaqaloqni tug‘uruqxonadan olib chiqish, aqiqa, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, muchal to‘yi, nikoh to‘yi, qiz bazmi, kelin salom, charlar, kumush to‘y, oltin to‘y, payg‘ambar yoshi to‘yi va hokazo. Ma’rakalarni oladigan bo‘lsangiz, uch, yetti, yigirma, qirq, “payshanbalik”, “yakshanbalik”, ikki hayit marosimlari, yil oshi**... Hammasini hisoblasak, yana ko‘p-ko‘p sahifalarning yuzini qora qilishga to‘g‘ri keladi.

Milliy g‘oya mezonlari bilan yondashganda, faqat mana shu odatlargina **“yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, bilim darajasi va dunyoqarashi, siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar**”, o‘zbek jamiyatining barcha a’zolarini birlashtirish va safarbar etishga qodir. Faqat mana shu g‘oya, ya’ni, to‘y-hasham yo‘lida odamlarimiz sog‘lig‘ini, butun borlig‘ini, hatto aziz jonini qurbon qilishga tayyor. Shuning uchun ular migrant deb nom olib, Qozog‘iston cho‘llarida, buzuq avtobuslarda yonib kul bo‘lishga, Sibir taygalarida mardikorlik qilishga, Moskva ko‘chalarini supurib, qahraton qishda qor kurashga, ayollar esa oilasi, eri, bolalarini tashlab, Turkiya-yu Dubayda oqsochlik qilishga tayyor. Ularning aksariyat ko‘pchiligida bitta orzu, bitta maqsad: chet ellarda qanday yo‘llar bilan bo‘lsa-da, bir amallab pul topib kelish va... uni to‘y-hashamga, ma’raka-marosimga sarflash.

Milliy g‘oya mezonlari asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, bizda “**muntazam rivojlanib, boyib boradigan**” tushuncha va tamoyillar bormi? Bor, albatta, yagona bir g‘oya bor. U ham bo‘lsa, to‘y-hasham.

Tan olaylik, to‘y-ma’rakalarimizda paydo bo‘layotgan yangi va yangi, xilma-xil belgi-alomatlar: nikoh to‘ylaridagi “lav storiy” – sevgi qissalari, qaynota va kelinning birga vals tushishlari, kelinning ersiragan dugonalariga guldasta uloqtirishi va ularning buni talashib olishi, “kelin navkar”, “kuyov salom” kabi odatlarning joriy etilishi, kelin-kuyovning to‘yxona zaliga ot yoki “Mersedes” minib kirib kelishlari, quda tomonga yuboriladigan bo‘rdoqi qo‘ylarning sochini prichyoska qilish, shoxiga rangli lenta taqish, oyog‘iga tufli kiydirib, labiga pomada surish... bunga dalil emasmi? Yoki to‘ylarimizda meva-cheva, pista-bodom, qandolat mahsulotlarini “arenda”ga olib yolg‘on dasturxon bezatish kabi “nou-xau”larni dunyodagi bironta xalq ijod qila olganmi? Bunday ishlar faqat to‘y-hasham tushunchasini milliy g‘oya darajasiga ko‘targan, butun aql-u zakovatini shunga baxsh etgan millatning qo‘lidan keladi, xolos...

Vodarig‘, chindan ham, Alixonto‘ra Sog‘uniy hazratlari aytganlaridek, agar xalqimiz to‘y-ma’rakalarga, nahorgi oshlarga buyuk bir safarbarlik bilan uyushib borganidek, bugun zamon talab qilayotgan, dinimiz buyurgan maqsadlar yo‘lida ham shunday ahillik bilan uyushib, shaxt-u shiddat ko‘rsatsa edi, yer yuzida bu xalqni yenga oladigan kuch bo‘lmasdi, bu xalq egallamagan marra qolmas edi. Lekin, afsuski...

Nachora, birovga yoqadimi-yo‘qmi, millatchi ziyolilarimiz burnini jiyiradimi-yo‘qmi, bundan qat’i nazar, **o‘zbek xalqining milliy g‘oyasi – bu to‘y-hasham g‘oyasidir,** deb aytish uchun barcha tarixiy, falsafiy, ruhiy-ma’naviy asoslar mavjud. **De-yure** boshqacha bo‘lishi mumkin, ammo **de-fakto** – ayni shunday. Bu holatdan qachon qutulamiz – “bu savol hamon javobsiz qolmoqda”.

Ehtirom ABDULLAYEV,
faylasuf, 71 yosh
Xayriddin SULTONning
“Odamlardan tinglab hikoya” kitobidan.

Manba: Oyna.uz

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash'al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497